Shu bois matnlarni boblarga, so‘ng satrlarga va sarlavhalarga bo‘lib o‘rganganimizda, asar g‘oyat chuqur yozilganiga ishonch hosil qildik”, deydi tarjimon. Ayni shu fransuz tiliga ag‘darilgan tarjima O‘zbekiston Respublikasi FA Sharqshunoslik institutining sobiq rahbari Sabohat Azimjonova hamda fransuz olimi Jan Luyi Bakye Grammonlarning maxsus ilmiy muqaddimalari bilan boshlanadi [7].

O‘ylaymizki, ushbu tarjima boburiylar sulolasining benazir vakilasi Gulbadan Begim haqidagi tasavvurlarimizni yanada boyitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

(1). The History of Humayun by Guldabadanbegam. London, 1902.

(2). Three Memoirs of Humayun: Gulbadan Begim's Humayunnama/Jawhar Aftabachi's Tadhkiratu 'l-waqiat. Translation and ed. Whiler M.Thackston., Mazda publisher, 2009, p. 7.

(3). Aftabachi, J. (1972). Private Memories of Humayun. Trans. Major Charles Stewart (Dehli: Idarah-I Adabiyat-I Delli).

(4). Jaffar, S.M. (1974). The Mughal Empire from babur to Avrangzeb. Dehli, Ess Ess Publications.

(5). Lal, Muni. (1978). Humayun. New Dehli, Vikas Publishing.

(6). Banerji, S.K. (1938). Humayun padshah. London, Oxford University Press.

(7). Babur. Zahir ud Din Muhammad. The Babur-nama.trans. Annete Beveridge. New York, AMS Press, 1971.

(8). Gascoigne. Bamber. The great Moghuls. New York, Harper and Row (1971).

(9). Ishwari, P. (1976). The life and Times of Humayun. (p.16). Allahabad, Central Book Depot.

(10). I.Ashfar. Gulbadan banu. Gulbadan-namah (dukhtari-Babur va Khahar Humayun (Tehran, 1383/ 2005, p. 10.

(11). Rumer Goden. Gulbadan. Portraits of a Rose Princess at the Mughal Court, London, Macmillan Press, 1980.

(12). Nadvi. R.A. Humayun-Nama. Lahore, 2005.

(13). Gulbadanbegim Zahiriddin Bobur qizi. Humoyunnoma. Z.M.Boburning o‘g‘li–Humoyun podshohning ahvoli”. S.Azimjanova tomonidan fors tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Toshkent, “Ma’naviyat”, 1998, 3–7-betlar.

(14). Gul-Badan baygam. Le Livre de Humayun traduit du person par Pierre Pittareti, edition, etablie, presentee et complete d’extraits de chroniques persanes par jean- Louis Backques-Grammout. Gallimard, UNESCO, 1996, p. 7.

(15). Beveridge, Annette Sussanah. Life and Writings of Gulbadan Begam, University of Toronto Library, 1989, p. 10.

Mavlonova Zarnigorxon Alisher qizi (Guliston davlat universiteti 2-bosqich magistranti
e-mail: zarnigorxonabduolimova1227@gmail.com)

USMON AZIM SHE’RIYATIDAGI KECHINMA TASVIRIDA RANG SIMVOLIKASINING O‘ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada shoir Usmon Azim she’riyatidagi ruhiyatning rang detallari orqali bo‘yoqdor tasvirlanishi, kechinmalar oqimi, adabiyotda rang konseptining birlamchi omil ekanligi, shoir ijodidagi ramziylik, lirik asarda ruhiyat va rang uyg‘unligi kabi jihatlarga e’tibor qaratildi. Lirik matn ruhiga ko‘ra bir xil ranglarning turli ma’nolarni ifodalab kelishi mumkinligini ko‘rsatib berishga harakat qilindi.*

Kalit so‘zlar: *simvolika, kechinma, konsept, rang detali, psixika, ramziylik, kayfiyat, poetik fikr, lirik kontekst.*

Мавланова Зарнигорхан Алишер кызы (Гулистанский государственный университет, 2-й ступень магистратуры; e-mail: zarnigorxonabduolimova1227@gmail.com)

СВОЕОБРАЗИЕ ЦВЕТОВОЙ СИМВОЛИКИ В ИЗОБРАЖЕНИИ ПЕРЕЖИВАНИЯ В ПОЭЗИИ ОСМАНА АЗИМА

Аннотация*. В данной статье основное внимание было уделено таким аспектам, как красочное изображение психики через цветовые детали в поэзии поэта Османа Азима, поток переживаний, первостепенный фактор концепции цвета в литературе, символизм в творчестве поэта, гармония психики и цвета в лирическом произведении. Была сделана попытка показать, что одни и те же цвета могут иметь разные значения в соответствии с духом лирического текста.*

Ключевые слова: *символика, переживание, концепция, цветовая деталь, психика, символизм, настроение, поэтическая мысль, лирический контекст.*

Mavlonova Zarnigorkhan Alisher daughter (Gulistan State University Phase 2 graduate
e-mail: zarnigorxonabduolimova1227@gmail.com)

THE USE OF COLOR DETAIL IN THE IMAGE OF THE PSYCHE IN THE LYRICS BY USMAN AZIM

Annotation. *In this article, the poet Usman Azim paid attention to such aspects as the painterly representation of the psyche through color details, the flow of experiences, the primary factor of the concept of color in literature, symbolism in the poet's work, the harmony of spirit and color in the lyrical work. An attempt was made to show that the same colors could represent different meanings according to the spirit of the lyrical text.*

Keywords: *symbolism, supplication, concept, color detail, psyche, symbolism, mood, poetic thought, lyrical context.*

Kirish. Kechinma ruhiyat masalasidir. Uni tadqiq qilish adabiyotshunoslikning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Inson kechinmalarini to'laligicha talqin qilish murakkab jarayondir. Adabiyotning markazida turuvchi inson obrazining ruhiy hayoti mahoratli ijodkorlar tomonidan bir qadar ochib beriladi. Ularning kechinmalari turli tasvirlarda aks etadi. O'zbek she'riyatida kechinma mavzusida bir qator izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, ularning asosiy qismi umumiy tarzda tadqiq etilgan. Badiiy kechinma tadqiqini ma'lum muayyan ijodkorlar misolida olib borish esa muhim masalalardan biridir. Ushbu maqolaning xarakterli jihati shundaki, unda kechinma tasviri Usmon Azim lirikasi misolida o'rganildi. Usmon Azim ijodida kechinma tasvirini rang detali orqali berilishini tahlil etishga e'tibor qaratildi. Shoir ijodini bu usulda ilk marta tahlil qilinishi xarakterlidir.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur maqolani yozishda bir qator ilmiy adabiyot va manbalardan foydalanildi. Jumladan, B.Sarimsoqov "Badiiylik asoslari va mezonlari", J.Turdimov "Lirik kechinma tabiati" nomzodlik dissertatsiyasi, N.Rahimjonov "Istiqlol va bugungi adabiyot", J.Suvonova "Hozirgi o'zbek she'riyatida badiiy izlanishlar" nomzodlik dissertatsiyasi shular jumlasidandir. Yuqoridagi manbalarda lirik kechinma haqida nazariy fikrlar keltirilgan. Xususan, Bahodir Sarimsoqov kechinma haqida fikr yuritar ekan, lirik turda yaratilgan barcha asarlar kechinmaning mahsuli ekanligini ta'kidlaydi. N.Jumatova o'zining "Hozirgi o'zbek she'riyatida rang bilan bog'liq ramziy obrazlar" nomli nomzodlik dissertatsiyasida ranglarga yuklangan ramziy ma'nolarni tahlil qiladi. Bunda obyekt sifatida, asosan, folklor namunalaridan foydalanadi. Ranglar orqali inson ruhiyatini ochish va tahlil qilishga intiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirda ruhiyat masalasi izchil o'rganilayotgan dolzarb mavzulardan biridir. Lirik kechinma tabiati mavzusida bugungi kunga qadar bir qancha tadqiqot ishlari yozildi. Ularning aksariyati o'zbek, rus adabiyotshunoslariga tegishli hisoblanadi. Bu manbalar mavzuni o'rganishda poydevor vazifasini o'taydi. Xususan, Gegel, L.I.Timofeyev, V.M.Jirmunskiy, V.Mayakovskiy, D.N.Shmelev, Bahodir Sarimsoqov, Qosim Yashar, Jamoliddin Turdimov, No'mon Rahimjonov, Ulug'bek Hamdamov va shu kabilarning nazariy qarashlari xarakterlidir. Maqoladagi she'rlarni tahlil qilishda qiyosiy, struktur-analiz, lingvistik, formal metodlardan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar. She'riyat azal-azaldan insonning ong-u shuuriga singib, tafakkuriga ta'sir etib, hislarini tebratib kelayotgan bir mo'jizaviy kuchdir. Bu kuchning asosiy quroli esa kechinmalar hisoblanadi. Hech bir yaratiq o'z-o'zidan paydo bo'lmagani kabi, she'r ham lirik kechinmalar turtkisisiz dunyoga kela olmaydi. Yurak tubida uyg'ongan ushbu kechinmalarning paydo bo'lishiga sabab bo'luvchi omillar turli bo'lgani kabi, ularni botindan zohirlashtiruvchi, ya'ni o'quvchiga taqdim etuvchi usullari talaygina. Bunday ifoda shakllaridan biri bu kechinmalarni ranglar orqali aks ettirilishidir. Bilamizki, adabiyotshunoslikda rang bilan bog'liq obraz va detallarni badiiy-estetik tamoyillarga tayangan holda talqin qilish, g'oyaviy xususiyatlarini aniqlash o'ziga xos o'rin tutadi. Insonning ichki olami, ruhiyatini ochib berishda rang detalidan foydalanish hissiyotlarning nisbatan aniq fonlarda aks ettirilishiga xizmat qiladi. Voqelikni ranglar vositasida, tabiat bo'yoqlari orqali ko'rish, badiiy anglash va ifoda qilish deyarli barcha so'z san'atkorlari uchun xos xususiyatdir.[1] Badiiy ramziy obrazlarning rang detali bilan o'zaro aloqadorligi badiiy ifodaning ta'sirchan va teran bo'lishiga xizmat qiladi. Adabiyotda ranglar mavzusi turli davrlarda turli nuqtayi nazarlar bilan o'rganilgan. Jumladan, S.Dondershin ranglar va ularning xususiyatlariga bag'ishlab yozilgan monografiyasida ranglar vositasida inson ichki olamini ochish mumkinligiga urg'u beradi. Lirik kechinma tasvirida ruhiyat va rang uyg'unligi nihoyatda muhim o'rin tutadi. She'riy kontekstda rang matnga jarangdorlik va stilistik bo'yoqdorlik beradi. Shu bilan birga, ruhiyat manzaralarini yanada teran ifoda etishda ahamiyat kasb etadi. N.Jumatova o'zining "Hozirgi o'zbek she'riyatida rang bilan bog'liq ramziy obrazlar"

[1] Rahimjonov N. Istiqlol va bugungi adabiyot. T., "O'qituvchi", 2012, 105-bet.

mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida rang bilan bog‘liq ramziy obraz yaratish insoniyat badiiy tafakkurining juda qadimgi davrlariga borib taqalishini va ranglarni ramzlashtirish insonning ongli hayoti bilan chambarchas bog‘liq holda yuz berishini ta’kidlaydi.[1]

Poetik ijod jarayonining ajralmas bir qismi hisoblanuvchi kechinmalarning yashirin va ziddiyatli taraflari, o‘ziga xos jihatlari borki, ularni keng ko‘lamda talqin etish murakkab jarayondir. Shunday bo‘lsada, adabiyotning markazida turuvchi inson obrazining ruhiy olamini yoritishni asosiy maqsad qilgan shoir Usmon Azim buning uddasidan chiqmoqda, desak, adashmaymiz. She’riyatda badiiy talqin usullarini o‘rganish antik davrlardan boshlangan rang detali shoir ijodida faol uchraydi. Rang tasvirlarini qo‘llash orqali ijodkorning lirik asar zamirida yotgan g‘oyaviy-badiiy niyatlari yuzaga chiqadi. U o‘z ijod namunalarida ranglarni an’anaviy va o‘ziga xos usullarda qo‘llaydi. Ranglar orqali u o‘z kayfiyatini aks ettiradi. Rang konseptini lirik asarda birlamchi omillardan, deb ayta olamiz. Chunki u lirik kontekst mohiyatini anglatadi, ijodkorning konsepsiyasini asoslaydi. Xuddi shunday, Usmon Azim ijodini kuzatar ekanmiz, ranglar orqali kechinmalar xarakterlanishiga, ba’zi o‘rinlarda shoir ruhiy olami ijtimoiy va ma’naviy jarayonlar bilan parallel yoritilishiga guvoh bo‘lamiz. Qolaversa, ijodkor mahorati ko‘ngil kechinmalarini qay darajada haqqoniy tasvirlay bilishi bilan ham baholanadi:

Meni asir oldilar,
Bedovimning badani
Asabiy titrar, uchar...
Olloh, karaming qani?..
Meni asir oldilar,
Osmon – qaro, yer – qaro.
Nega istiqbolimga
Chiqding, sen, ey fuqaro?[2]

“Mo‘min Mirzoning so‘nggi qo‘shig‘i” nomli lirik matnga tegishli parchadan ayonki, qahramon yurt uchun jangga kirib, mardonavor olishgan. Biroq so‘ngida dushmanga asir tushgan, bu esa uning uchun alamli hol. Bir vaqtlar dushmanni zor titratgan, vatanini yovlardan himoya qilgan (“Men ham ilkimda qilich, ovlaganman yo‘lbars, sher. Dushman muzaffar o‘ldi, ag‘yor falak qildi yer”) qahramon endilikda, hatto dardini ham oshkor etolmaydi, chunki “Qo‘riqchilar tegramda qur tashlab borar hushyor”. Bu o‘rinda hurlik – yorug‘likni yo‘qotgan inson uchun “Osmon – qaro, yer – qaro” bo‘lishi, tabiiy. Bilamizki, qora rang motam ranglaridan biridir, qolaversa, dard, alam, azob-uqubatni anglatadi. Xususan, professor S. Ro‘zimboyev o‘zining “Xorazm dostonlarida ramzlar” maqolasida qora rangni o‘lim, baxtsizlik rangi sifatida talqin qiladi.[3] Garchi ba’zi o‘rinlarda bu rang kuch-qudratni (“Qora rang elga toji torakdur, Kim bu rang ichradur, muborakdur”, A.Navoiy[4]) ifodalasa ham, bu o‘rinda qora rang yuqorida sanab o‘tilgan motam, azob-uqubat va dardli holatlarni ifodalamoqda. Qahramon kechinmalarini aks ettirishda boshqa ijodkorlar tomonidan ham faol qo‘llaniluvchi (masalan, “Qora kunlar keldi ko‘hna diyorga” (A.Oripov), “Ko‘zimning qa’rida ul qora devor” (R.Parfi), “Bir halokat halqumini ochib kelar Qora libos, qora chakmon, qo-ra tulpor” (A.Mahkam) an’anaviy qora rang detali katta ahamiyat kasb etgan. Nursizlikda, yo‘lsizlikda qol-gan inson uchun butun borliq qorayib, qorong‘ulikka cho‘mishi tabiiydir. Shuning uchun shoir lirik qah-ramon obrazi nazdida yer-u osmonni qarolikka mahkum etadi. Shoirning “Fonus” to‘plamiga kiritilgan ush-bu she’riga e’tibor qarataylik:

Bir parcha qora bulut
Ko‘kni ketdi oralab.
Oh, u mening boshimni
Kelayapti qoralab. [5]

Bilamizki, shoir boshini mo‘ljallab kelayotgan qora bulut yaxshilik darakchisi emas. U kelgusida yaqinlashib kelayotgan mushkulotdan xabar bermoqda. Shoir so‘z qo‘llashda mahoratini ko‘rsatadi. “Qoralab” so‘zi orqali ham “yo‘qlash”, ham “qismatni qora qilish” ma’nolarini ifodalab, so‘z yukini ikki hissa oshiradi. Biroq bunday bulutlar har qanday mayda kaslarni emas, o‘zi kabi tog‘ insonlarnigina tanlashini o‘ylab, sinovlar oldiga sabr bilan chiqadi. Bundan tashqari, ham shoir ijodida qora rang detali qo‘llanilgan

[1] Jumatova N. Hozirgi o‘zbek she’riyatida rang bilan bog‘liq ramziy obrazlar. Fil.fan.nomz.diss., T., 2000, 35-bet.
[2] Usmon Azim. Saylanma. T., “Sharq”, 1995, 11-bet.
[3] Ro‘zimboyev S. Xorazm dostonlarida ramzlar. “O‘zbek tili va adabiyoti”, 1992, 5–6-sonlar, 52-bet.
[4] Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma jildlik, 10-jild, Toshkent, 1992, 176-bet.
[5] Usmon Azim. Fonus. T., “Sharq”, 2010, 47-bet.

o‘rinlar talaygina. ”Sen o‘tasan – qismatlar qaro”, “Qora tunda lovullaydi bo‘rining ko‘zi”, “Falak uzra g‘amdan qorayib, yig‘lagudek turibdi bulut”, “Chayqalar qora kecha”, “Sensiz bu ro‘zg‘orim bo‘larkan qaro, Abad qarolig‘da so‘ngim keladi”, “Qorajoning qora kunlar boshidadur”, “Qoraya boshladi suv ingan tuproq”, “Sovuq tegib o‘tdi – gullar qoraydi”, “Qora rangga qo‘l tekkizma” kabi misralar shular jumlasidandir.

Usmon Azim ijodida kechinmalar tasvirida eng faol uchraydigan ranglardan yana biri oq rang hisoblanadi. O‘tmishdan ma’lumki, oq va ko‘k ranglar motam, qayg‘u ranglari bo‘lganligi bilan bir qatorda, oq rang yorug‘lik, poklik, soflik va yaxshilikni ham ifodalagan. Shoir ijodida bu rang har ikki turdagi kechinmalarni ifodalashda badiiy vosita bo‘lib xizmat qilgan. U “Oppoq soflik ichrakim tegra-atrof muhtasham”, “Keldingmi, aziz qish – oqtan farishta”, “Oppoq to‘shaklarda oladi orom”, “Qanday oppoqdir olam, toza, go‘zal, mukarram”, “Musaffo keng oqlik dilga ko‘chgan chog‘”, “Ana, qorli kecha – oppoq farishta Bo‘salar olmoqda aziz manglaydan”, “Qorning oppoq shivirin tinglab”, “Men ko‘cha kezaman. Yog‘a boshlar qor, Oppoq qo‘lchalarin yelkamga tashlab” kabi misralarida qishning tarovati jo‘sh urdirgan hissiyotlarini aks ettirgan bo‘lsa, “Oq ko‘ylakka – harir tumanga – Tong ko‘ksiga to‘lin oy botdi” deb yakunlanuvchi she’rda esa chaqaloq va ona suti tong va oy munosabatlari orqali o‘ta nozik chizgilarda ifoda etilgan.

Suratimni chizmoq uchun
Oppoq bo‘yoq tanlading,
Bu dunyoga nega kelib,
Ketganimni anglading.
Qo‘llarimning tasviriga
Yugurtirding oq bo‘yoq.
Yuzimni ham oqqa bo‘ya
Yuzim doim bo‘lgan oq... [1].

Shoir “Maqsud Shayxzoda” nomli she’rida oq rangdan lirik qahramon shaxsiyatini chizishda, dil tug‘yonlarini aks ettirishda foydalanadi. Lirik qahramonning tilidan ko‘chgan iqrordan ko‘rish mumkinki, Maqsud Shayxzoda ortga qayrilganda, o‘zini uyaltirmaydigan hayot yo‘lini bosib o‘tgan, haqiqat va adolat yo‘lidagi kurashlarda yonib yashagan. Shuning uchun ham unda “Imongoh – yurak oppoq”ligicha saqlangan. Lirik qahramon surati faqat oqlik, ya’ni yorug‘likdan iborat bo‘lishini istar ekan, qora rang aralashmasligi uchun dushmanlik qilganlarni ham kechiradi va rassomdan ularni ham oq rangda ifodalashini so‘raydi. Adabiyotshunos Bahodir Sarimsoqov qayd etganidek: “Shoir e’tiqodi, uning borlig‘i, suyanch tog‘lari – inson. Olam va odam taqdiri haqida qayg‘urish haqiqiy shoir qalbini junbushga keltirib turadigan darddir”.[2] Usmon Azim ham she’r – dilning tarjimoni, degan naqlga amal qilib, o‘z lirikasi orqali adabiyotning markaziy obyekti sanalgan inson kechinmalarini ko‘tarib chiqadi. Yozganda ham she’rxonga bir deganda yuquvchan shaklda mahorat bilan ifodalaydi. “Tundan qo‘rqma, oq tongning bir parchasi ko‘ksimda” satrida shoir yuragidagi yorug‘ hislardan xabar berayotgan bo‘lsa, ikki o‘rinda uchraydigan “oq yomg‘irlar” (“Boshimdan yog‘sa oq yomg‘ir”, “Oq yomg‘irda boshyalang raqs, o‘ynaymiz”) birikmasi birida umid, birida yorug‘ xotiralarni jonlantiradi. “O, men sizni qanchalar kutdim, Mana – oq soch, mana bu – ajin”, “Oqarib borar sochim Xuddi Arktika tarzda” kabi o‘rinlarda esa badiiy matnda kechinmalari tasvirlanayotgan obyekt oq rang detalidan yuqoridagidek yorqinlik va jo‘shqinlikni ifodalash emas, balki o‘tib borayotgan umr, boy berilgan yoshlik, sog‘inch kabi ma’nolarga ishora qiladi.

Xulosa. Aks ettiruvchi tuyg‘u nechog‘lik kuchli bo‘lsa, uning qabul qiluvchi kishiga ko‘rsatajak ta’siri ham shu darajada kuchli bo‘ladi.[3] Bunday ta’sirchanlikni yuzaga keltirishda ranglar muhim ahamiyat kasb etadi. Lirikada mazmun va shoirlar ilgari suruvchi g‘oya rang mohiyatidan anglashilinadi. She’riyatda subyektivlik kuchli hisoblanadi. Obyekt ham, subyekt ham, asosan, bir shaxsda aks etadi, lirik qahramon ortida ijodkorning shaxsiy “men”i, ichki ruhiy olami turadi. Usmon Azim ham she’riy asarlari orqali o‘z ruhiy kechinmalarini aks ettiradi. Rang detali ushbu ruhiyat tasvirlarini ochib berishda muhim o‘rin tutadi. She’rlarida kayfiyat, ruh va rang tasviri uyg‘unligining poetik ko‘lamdorligini ta’minlashga erishgan. Ranglardan an’anaviy va o‘ziga xos usullardan foydalangan va badiiy maqsadiga erishgan, desak, adashmaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Rahimjonov N. Istiqlol va bugungi adabiyot. T., “O‘qituvchi”, 2012, 327-bet.

[1] Usmon Azim. Dars. T., G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1986, 40-bet.
[2] Sarimsoqov B. Muhabbatga fido she’riyat. “O‘zbek tili va adabiyoti”, 1990, 2-son, 12-bet.
[3] Толстой Л.Н. О литературе. М., 1995, с. 98.

(2). Jumatova N. Hozirgi o‘zbek she’riyatida rang bilan bog‘liq ramziy obrazlar. Fil.fan.nomz.diss., T., 2000, 126-bet.
(3). Usmon Azim. Saylanma. T., “Sharq”, 1995, 185-bet.
(4). Ro‘zimboyev S. Xorazm dostonlarida ramzlar. “O‘zbek tili va adabiyoti”, 1992, 5–6-sonlar, 96-bet.
(5). Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma jildlik, 10-jild, Toshkent, 1992, 548-bet.
(6). Usmon Azim. Fonus. T., “Sharq”, 2010, 160-bet.
(7). Usmon Azim. Dars. T., G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1986, 105-bet.
(8). Sarimsoqov B. Muhabbatga fido she’riyat. “O‘zbek tili va adabiyoti”, 1990, 2-son, 12-bet.
(7). Fayzullayeva O. General Typological Characteristics of Lyric Cycyles. Science and innovation, 2022, 1(B5), p. 231–236.
(8). Толстой Л.Н. О литературе. М., 1995, с. 764.

Saydazimova Umida Turaxanovna (Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti Koreyashunoslik oliy maktabi professori, DSc; e-mail: umidsaid75@gmail.com),
Murodova Durdona Baxodir qizi (Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti Koreyashunoslik oliy maktabi katta o‘qituvchisi, PhD; e-mail:durum369@gmail.com),
Ibrohimova Ozoda Mirzadavlat qizi (Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish yo‘nalishi 3-kurs talabasi; e-mail: Ozodaxonibrohimova00@gmail.com)

KOREYS VA O‘ZBEK IJODKORLARI NASRIDA OILAVIY ZO‘RAVONLIK MASALASINING BADIIY TALQINI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada koreys va o‘zbek ijodkorlari qalamiga mansub asarlarda oilaviy zo‘ravonlikning turli ko‘rinishlari tahlilga tortilgan. Oilaviy zo‘ravonlik – oilaviy munosabatlarning buzilishiga sabab bo‘ladi. Koreys jamiyatida konfutsiychilik me’yorlariga asoslangan oilada tartibning buzilishiga sabab bo‘lgan ijtimoiy muhit ayollarning zo‘ravonlikka uchrashiga sabab bo‘ldi. Feodalizm hamda sho‘rolar davrida oiladagi zo‘ravonlikni ayrim ayollar sodiqlik va vafodorlik, deb qabul qildilar. Zo‘ravonlikka qarshi bosh ko‘targan ayol-qizlar taqdiri ayanchli yakun topdi.*

Kalit so‘zlar: *oilaviy zo‘ravonlik, kaltaklash, ruhiy bosim o‘tkazish, zaif qatlam, ijtimoiy muhit, ayol, erkak, erk, qadr-qimmat.*

Сайдазимова Умида Тураxановна (Ташкентский государственный университет востоковедения, Высшая школа Корееведения, DSc, профессор; e-mail: umidsaid75@gmail.com),
Муродова Дурдона Баходировна (Ташкентский государственный университет востоковедения, Высшая школа Корееведения старший преподаватель, PhD; e-mail:durum369@gmail.com),
Ибрагимова Озода Мирзадавлатовна (Ташкентский государственный университет востоковедения, Филология и обучение языкам, студентка 3-курс; e-mail: Ozodaxonibrohimova00@gmail.com)

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПРОЗЫ О ДОМАШНЕМ НАСИЛИИ КОРЕЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ АВТОРОВ

Аннотация. *В данной статье анализируются различные формы семейного насилия в произведениях корейских и узбекских авторов. Семейное насилие приводит к разрушению семейных отношений. В корейском обществе, основанном на нормах конфуцианства, социальная среда, приведшая к нарушению порядка в семье, стала причиной того, что женщины подвергались насилию. В эпоху феодализма и в советский период некоторые женщины воспринимали насилие в семье как верность и преданность. Судьбы женщин, восставших против насилия, зачастую завершались трагически.*

Ключевые слова: *семейное насилие, избиение, психическое давление, уязвимые слои населения, социальная среда, женщина, мужчина, воля, достоинство.*

Saydazimova Umida (Tashkent State University of Oriental Studies Higher school of korean studies, DSc, professor; e-mail: umidsaid75@gmail.com),
Murodova Durdona (Tashkent State University of Oriental Studies Higher school of Korean studies, PhD, senior teacher; e-mail:durum369@gmail.com),
Ibragimova Ozoda (Tashkent State University of Oriental Studies Institute of languages and literature 3rd course; e-mail: Ozodaxonibrohimova00@gmail.com)

ARTISTIC INTERPRETATION OF PROSE ON DOMESTIC VIOLENCE BY KOREAN AND UZBEK AUTHORS

Annotation. *This article analyzes various forms of domestic violence in the works of Korean and Uzbek authors. Domestic violence leads to the destruction of family relationships. In Korean society, based on Confucian norms, the social environment that led to the breakdown of family order became the cause of women experiencing violence. During the feudal era and the Soviet period, some women perceived domestic violence as loyalty and devotion. The fates of women who rebelled against violence often ended tragically.*